



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

20 22 y. "21" oktabe № 38

Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo'yicha ish haqi tanlanma statistika kuzatuv bo'yicha uslubiy nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, davlat statistikasi tizimidagi uslubiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 4939-son qarori hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi**:

1. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2020-yil 28-fevraldagi "Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo'yicha ish haqi tanlanma statistika kuzatuv bo'yicha uslubiy nizom"ga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo'yicha ish haqi tanlanma statistika kuzatuvi bo'yicha uslubiy nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. 6-band 7-xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xodimlarni toifalar bo'yicha taqsimlashda, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2021-yil 6-maydagi 05-1288-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori” (keyingi o'rinlarda–XALIKK–2020) davlat standarti hamda Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 9-dekabrda 1288-son bilan ro'yxatga olingan “Boshqaruv va xo'jalik boshqaruvi organlarining boshqaruv, xizmat ko'rsatish, texnik xodimlari mansab lavozimlari nomenklaturasi (nomlanish ro'yxati)”dan foydalanildi.

2. 7-band 2-xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“xodimlarning lavozimlari, kasblar nomlari XALIKK–2020 ga muvofiq;”.

3. Foydalanilgan manbalar ro'yxatining 3-xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2021-yil 6-maydagi 05-1288-son “O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida” qarori.